




JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**Jizzax viloyati
kichik tadbirkorlik
2021- yil yanvar-dekabr**


Jizzax viloyatida kichik tadbirkorlik




Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMdagi ulushi, % da



2019- yil



2020- yil



2021- yil

2021- yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining **YaHM**dagi ulushi **81,2** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **1443,4** birlikni tashkil qildi.

2021- yilning yanvar-dekabrda **4,4** mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **102,2** foizga ko'p demakdir.

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da

Savdo



Sanoat



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Qurilish





Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda **1412** ta, sanoatda **837** ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **1015** ta, qurilishda **251** ta, yashash va ovqatlanishda **248** ta, axborot va aloqada **101** ta tashkil etilgan.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari





2021- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 103,8 

Sanoat 52,4 

Qurilish 93,9 

Investitsiya 79,6 

Savdo 87,2 

Xizmatlar 62,5 

Eksport 46,7 

Import 84,2 



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

19 463




Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

4 373

2021- yilning yanvar-dekabrida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da



■ 2020- y. ■ 2021- y.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar



2021-yil yanvar-dekabrda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, % da

Savdo

29,0%



Sanoat

18,6%



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

20,0%



Qurilish

10,4%



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

7,2%



Tashish va saqlash

3,1%



Axborot va aloqa

1,2%




Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

1,2%




Boshqa faoliyat turlari

9,3%



Yanvar-dekabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

Hududlar bo'yicha yanvar-dekabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



■ 2020-y. ■ 2021-y.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar



Hududlar bo'yicha yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda




■ 2020 y. yanvar-dekabr

■ 2021 y. yanvar-dekabr

2021- yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da


2021- yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Jizzax shahri – 25,5 %, Sharof Rashidov – 13,4 %, G'allaorol – 10,3 %, Zomin – 8,6 %, Baxmal – 7,8%, Forish – 7,7 % tumanlar hissalariga to'g'ri keldi.






Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



■ 2020-y. ■ 2021-y.

Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda



■ 2020-y. yanvar-sentabr ■ 2021-y. yanvar-sentabr

Ma'lumot uchun: 2021- yilning yanvar-dekabrda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:

Savdoda

1 412 ta

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida
1 015 ta

Sanoatda

837 ta

Qurilishda
251 ta


Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida




2021- yil yanvar-dekabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 1443,4 birlikni tashkil etdi.



Jizzax viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-dekabr holatiga ko'ra*




2021- yilning yanvar-dekabrda hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)*



2021- yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahrida 5,8 birlik, Sharof Rashidov tumanida 3,0 birlik, G'allaorol tumanida 1,7 birlik, Zomin va Forish tumanida 1,5 birlik, Baxmal tumanida 1,1 birlik tashkil etgan.


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti

2021- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 91,6 mln. AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 46,6 % ini tashkil etdi.




Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami eksportdagi ulushi

2021 yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da



2021 – yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Baxmal, Zafarobod, Mirzacho'l, Paxtakor va Yangiobod tumanlarida – 100,0 %, Forish tumanida 68,7 %, Zomin tumanida – 68,2 %, Sh.Rashidov tumanida – 48,4 % ni, eng past ko'rsatkich Do'stlik tumanida – 6,2 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi




Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami importdagi ulushi

2021- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **283,3** million AQSh dollarini yoki umumiy importning **84,4** % ini tashkil etdi.



2021 yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da




2021- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Baxmal, Paxtakor va Yangiobod tumanlarida – 100,0 %, G'allaorol tumanida – 99,8 %, Sharof Rashidov va Forish tumanlarida – 99,4 %, . Eng past ko'rsatkich Arnasoy tumanida – 9,4 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati




2021- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi mlrd. so'm

2021- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **4563,8** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi G'allaorol (1271,4 mlrd. so'm), Jizzax shaxar (1133,1 mlrd. so'm), Forish (345,6 mlrd. so'm), Paxtakor (329,6 mlrd. so'm) va Zafarobod (256,8 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Do'stlik tumanida (89,7mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati



Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi


2021- yil yanvar-dekabr oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **52,4 %** ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-dekabr holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Baxmal, Mirzacho'l va Yangiobod (100,0%), G'allaorol tumani (98,5%), Forish tumani (87,0%), Zomin tumani (71,5%), Sharof Rashidov tumani (59,5%), Paxtakor tumani (58,5%),ni tashkil etdi. Do'stlik tumani (10,5%) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi faoliyati




Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi ulushi

2021- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **7958,0** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **87,2** % ini tashkil etib. 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **54,9** % ga o'sishi kuzatildi.

2021- yilning yanvar- dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Jizzax shahri (1715,0 mlrd. so'm), Baxmal tumani (1229,8mlrd.so'm), Zomin tumani(1142,0mlrd.so'm), Sharof Rashidov tumani (1117,5mlrd.so'm), G'allaorol (810,2 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



■ hajm, mlrd. so'm

● o'sish sur'ati, %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi faoliyati




Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi

2021- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **2884,0** milliard soʻmni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **93,9 %** ni tashkil etdi. Oʻsish surʻati 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **115,6 %** ni tashkil qildi.




2021- yilning yanvar- dekabrda hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va oʻsish surʻati

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp bajarilgan qurilish ishlari hajmi Jizzax shahri (1113,3 mlrd. soʻm), Sharof Rashidov (458,8 mlrd. soʻm), Zomin (237,8 mlrd. soʻm), Paxtakor (222,1 mlrd. soʻm), Gʻallaorol (175,1 mlrd. soʻm), Zarbdor (124,9 mlrd. soʻm) hamda Zafarobod (110,9 mlrd. soʻm) tumanlarida qayd etildi.



■ hajm, mlrd. soʻm ● oʻsish surʻati, %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi faoliyati




Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami xizmatlardagi ulushi

2021- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **4014,5** mlrd. soʻmlik xizmatlar koʻrsatildi yoki koʻrsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **62,5** % ini tashkil qildi va oʻsish surʻati 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **119,9** % ni tashkil qilgan.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp xizmatlar hajmi Jizzax shahri (968,8 mlrd. soʻm), Sharof Rashidov (679,8 mlrd. soʻm), Gʻallaorol (455,7 mlrd. soʻm), Zomin (444,7 mlrd. soʻm), Baxmal (328,0 mlrd. soʻm), Forish (220,0 mlrd. soʻm) va Zarbdor (196,4 mlrd. soʻm) tumanlari hissasiga toʻgʻri keldi.

2021- yilning yanvar- dekabrda hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va oʻsish surʻati




2021- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi ko'rsatkichlari


2021- yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlikning ulushi, % da:




Yuk tashishda



Yuk aylanmasida



Yo'lovchi tashishda



Yo'lovchi aylanmasida

2021- yil yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 93,9 % ni tashkil etdi. 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 106,2 % ni tashkil qildi.

2021-yil yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 94,1 % ni tashkil etgan bo'lib, 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 108,0 % ni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 95,0 % ni tashkil etib, 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 106,2 % ni tashkil qildi.


2021- yil yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 97,6 % ni tashkil etib, 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 105,7 % ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2021- yil IV chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnoma 545 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 204 (37,4 %) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 308 (56,5%) ta sub'yektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 33 (6,1%) ta sub'yektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

2021- yil IV chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da




- Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
- Sanoat
- Qurilish
- Savdo
- Xizmatlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 7,3 % (51 ta), sanoatda – 10,2 % (60 ta), qurilishda – 5,7 % (32 ta), savdoda – 27,6% (169ta), xizmatlar sohasida – 49,2 % (253 ta)ni tashkil etdi.




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2021- yil IV chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Jizzax shahri (178 ta), Sharof Rashidov (89 ta), Forish (64 ta), G'allaorol (58 ta), Zomin (48 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


2021- yil IV chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari




2021- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2021-yilning IV choragida, o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda 34,8%ni, xizmatlar sohasida 23,0%ni qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 20,1%ni sanoatda 12,7% ni, qurilishda 9,3 % ni tashkil etdi. Shuningdek iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdoda 32,1%ni, xizmatlar sohasida 30,8%ni, sanoatda 15,6% ni tashkil etdi.

2021- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2021- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdo sohasida 35,3%ni, xizmatlarda 23,1 %, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 19,5%ni tashkil etdi.

Shuningdek yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdo sohasida 31,9%ni, xizmatlar 31,3%ni, sanoatda 13,8%ni tashkil etdi.

